O‘ZBEKISTONDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH HOLATI VA AHOLI FAROVONLIGIGA TA’SIRINI TAHLIL QILISH

Pardaboyev Quvonchbek Rustam o‘g‘li
Oqoltin tuman ixtisoslashtirilgan maktabi matematik fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.17513298

Annotatsiya. *Jahon miqyosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli. Hozirgi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik global iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, xalqaro tajribada kichik biznesning global yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etishi, ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yangi ish o‘rinlarini yaratishning asosiy manbai bo‘lib xizmat qilishi dolzarblikni yanada oshiradi. Kichik biznes sohasi iqtisodiy inqirozlar davrida iqtisodiyotning tezda tiklanishiga yordam beradi va diversifikatsiyani ta’minlash orqali barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu sababli, ko‘plab davlatlar kichik va o‘rta biznesni rag‘batlantirish bo‘yicha maxsus siyosat yuritmoqda.*

Kalit so’zlar: *кichik biznes, “ayollar daftari”, “yoshlar daftari”, o‘rta biznes, aholi faravonligi.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi yillarda tadbirkorlik muhitini yaxshilash, huquqiy va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirishga doir keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo’mitasi ma’lumotlariga asoslanib aytish mumkinki, mamlakatda ro‘yxatdan o‘tgan kichik tadbirkorlik sub’yektlari soni 542 mingdan oshgan bo‘lib, bu 2020-yilga nisbatan 17 foizlik o‘sishni tashkil etgan. Ushbu o‘sish, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

So‘nggi tendensiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik va o‘rta tadbirkorlik sub’yektlari nafaqat son jihatdan, balki YaIMdagi ulushi jihatidan ham ahamiyat kasb etmoqda. 2023-yilning birinchi yarmi holatiga ko‘ra, kichik biznesning YaIMdagi ulushi 56,5 foizni tashkil etgan, bu esa iqtisodiy faollikning asosiy qismini ushbu sektor tomonidan ta’minlanayotganini anglatadi. Hududlar kesimida eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichlari Toshkent shahri, Farg‘ona, Andijon va Samarqand viloyatlarida qayd etilgan. Bu holat, ayniqsa, urbanizatsiya jarayonining kuchayishi va infratuzilma imkoniyatlarining kengayib borayotganligi bilan bog‘liq.

Tadbirkorlik faoliyatida demografik tarkib bo‘yicha ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatilmoqda. Jumladan, 2022-yil davomida “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” doirasida 300 mingdan ortiq ayol va yoshlar o‘z biznes faoliyatini boshlash uchun imtiyozli kredit va subsidiya olgan. Mazkur dasturlar orqali nafaqat yangi ish o‘rinlari yaratildi, balki ijtimoiy tenglikni mustahkamlovchi mexanizmlar shakllandi. Shu bilan birga, ayollar tadbirkorligining umumiy tadbirkorlikdagi ulushi 26 foizga yetgani mamlakatda gender tenglikka qaratilgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligini ko‘rsatadi [Statistika qo’mitasi, 2023].

Fikrimizcha, hozirgi bosqichda O‘zbekistonda tadbirkorlik rivojlanishida “miqdoriy o‘sish” bosqichidan “sifatli rivojlanish” bosqichiga o‘tish zarurati dolzarb bo‘lib bormoqda. Ya’ni, faqat tadbirkorlar sonining o‘sishi emas, balki ularning raqobatbardoshligi, innovatsion salohiyati va barqarorligi asosida tahlil qilish zarur. Shu maqsadda biznes-inkubatorlar sonini oshirish, startap ekotizimni rivojlantirish, eksportga yo‘naltirilgan va yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Adabiyotlar sharhi. Ushbu tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlarni sharhlash uchun O‘zbekiston, Rossiya va xorijiy manbalardan foydalanilgan, ular tadbirkorlikning iqtisodiy ahamiyati bo‘yicha nazariy va amaliy tajribalarni aks ettiradi.

Avvalo, aholining farovonligi tushunchasi va uni baholash mezonlari yuzasidan turli yondashuvlar mavjud. Farovonlikni asosan daromadlar, iste’mol darajasi, yashash sifati, sog‘liqni saqlash va ta’lim xizmatlaridan foydalanish imkoniyati kabi ko‘rsatkichlar orqali o‘lchash amaliyoti keng tarqalgan. Xalqaro iqtisodchi olimlar, xususan, Stiglitz, Sen va Fitoussi tomonidan taklif etilgan farovonlik mezonlari bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar statistika tizimiga kiritilgan [Stiglitz et al., 2009]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, farovonlik faqat iqtisodiy o‘sish bilan emas, balki yashash sifati va inson salohiyati bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda farovonlik tushunchasiga oid nazariy izlanishlar orasida Siddiqov A. [Siddiqov, 2020] tadqiqotlari e’tiborga loyiq. Muallif O‘zbekiston sharoitida farovonlikni o‘lchashda aholining bandligi, real daromadlar darajasi, uy-joy bilan ta’minlanganlik, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga kirish darajasi kabi indikatorlarni asosiy ko‘rsatkich sifatida ilgari suradi. Bu indikatorlar tadbirkorlik faoliyati natijasida o‘zgaruvchi o‘zgaruvchilar sifatida qaralmoqda.

Tadbirkorlik faoliyati iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko‘riladi. J. Shumpeter tadbirkorlikni innovatsiyalarni amalga oshiruvchi va iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi asosiy vosita sifatida ta’riflagan [Schumpeter, 1934]. Bu yondashuv hozirgi zamon sharoitida dolzarbligini yo‘qotmagan. Aynan tadbirkorlik orqali yangi ish o‘rinlari yaratiladi, iste’mol bozorlari shakllanadi, mahalliy va global kapital aylanishiga turtki beriladi. Zamonaviy iqtisodchilar, xususan, Baumol (2010), Audretsch va Thurik (2004) lar tadbirkorlikning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ta’sirini tahlil qilib, uni ijtimoiy tenglikni ta’minlash vositasi sifatida ko‘rsatishgan.

O‘zbekiston olimlari orasida Normurodov Sh. [Normurodov, 2021] tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda tadbirkorlik faoliyatining bandlik va daromadlarga ta’siri, ayniqsa, qishloq joylardagi iqtisodiy faollikda tutgan o‘rni keng tahlil qilingan. Muallif kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar daromadini oshirish, ayollar va yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash orqali farovonlikka erishish mumkinligini asoslaydi.

Xorijiy tajribalarga murojaat qilganda, Janubiy Koreya, Germaniya, Polsha va Turkiya kabi mamlakatlar modeli alohida o‘rinni egallaydi. Lee (2019) tomonidan olib borilgan izlanishlarda Koreyada oilaviy tadbirkorlikning aholi daromadlariga ijobiy ta’siri va yosh tadbirkorlar uchun yaratilgan ekotizimlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, Audretsch va Keilbach (2005) tomonidan ishlab chiqilgan "entrepreneurial capital" konsepsiyasi orqali tadbirkorlik faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy rivojlanish omiliga aylanishi mumkinligi ko‘rsatiladi.

Tadbirkorlikning hududiy rivojlanishga ta’siri masalasiga oid muhim manbalardan biri — R. D. Karimovning [Karimov, 2023] tadqiqotidir. Unda mahalliy iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va barqaror tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi

farovonligini oshirish konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Ayniqsa, “mahalla tadbirkorligi”, “oilaviy biznes”, “agroklaster” kabi tushunchalarning farovonlikdagi o‘rni tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi va tahlil usullari Tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, dialektik tadqiqot, induktsiya va deduktsiya, maqsadli rivojlantirish, monografik kuzatuv, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, ekspert baholash va iqtisodiy statistik usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va aholi farovonligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi so‘nggi yillarda ijtimoiy-iqtisodiy tahlil doirasida muhim mavzuga aylangan. Tadbirkorlik subyektlarining faolligi aholining daromadlari, bandlik darajasi va turmush sifati bilan chambarchas bog‘liq. Davlat statistika qo‘mitasining 2023-yil yakuni bo‘yicha ma’lumotlariga ko‘ra, YaIMning 56,5 foizi kichik va o‘rta biznes sub’yektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shu bilan birga, bu sektorda ishlayotgan aholining ulushi umumiy mehnat bozorining 78 foizini tashkil etadi [Statistika qo’mitasi, 2023]. Bu ko‘rsatkich tadbirkorlikni aholining daromad topish manbai sifatida qarash imkonini beradi.

Tadbirkorlik faoliyati aholi bandligining asosiy manbalaridan biri sifatida ham katta ahamiyatga ega. 2022–2023-yillar davomida “Har bir oila — tadbirkor” va “Yoshlar – kelajagimiz” dasturlari orqali 200 mingdan ortiq fuqaroga imtiyozli kredit ajratilgan va bu orqali yangi ish o‘rinlari yaratilgan. Bu esa, ishsizlikni kamaytirish orqali ijtimoiy farovonlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Siddiqov A. o‘z izlanishlarida aynan “mahallabay ishlash” tizimi orqali aholi ehtiyojlariga mos tadbirkorlik shakllari yaratish farovonlikni oshirishning yangi modeli sifatida qaralishi mumkinligini ta’kidlaydi [Siddiqov, 2020].

Buning uchun, oldingi o‘rinlarda tavsiya qilinganidek, mamlakatimiz hududlari kesimida aholi farovonligi darajasidagi o‘zgarishlarni baholash imkonini beruvchi, rasmiy statistik ma’lumotlarga asoslangan ko‘rsatkichlarni tanlab olamiz. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining “O‘zbekiston Respublikasi yillik statistik to‘plami (2014-2023)” ma’lumotlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Biroq, shu o‘rinda mazkur to‘plamdan foydalanishdagi muayyan cheklov sifatida undagi barcha zarur ma’lumotlarning ham hududlar kesimida taqdim etilmaganligi hisoblanadi. Shunga ko‘ra, imkon qadar hududlar kesimida ma’lumotlar taqdim etilgan hamda aholi farovonligi darajasini ifodalay olish xususiyatiga ega bo‘lgan quyidagi ko‘rsatkichlarni ajratib olindi (1-jadval).

1-jadval

Mamlakat hududlari kesimida aholi farovonligi darajasidagio‘zgarishlarni baholash imkonini beruvchi ko‘rsatkichlar [9]

Statistik to‘plamda keltirilgan ko‘rsatkichlar	Ko‘rsatkichning aholi farovonligidarajasiga bog‘liqligi
Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi, ovqatlanish korxonalarini qo‘shgan holda	Aholi umumiy daromadlari va iste’mol darajasini bilvosita ifodalaydi
Yangi qurilish va rekonstruktsiya hisobidan umumta’lim maktablarini ishga tushirish	Ta’limning rivojlanganlik darajasini bilvosita ifodalaydi
Yangi qurilish va rekonstruktsiya hisobidan kasalxona muassasalarini ishga tushirish	Sog‘liqni saqlashning rivojlanganlik darajasini bilvosita ifodalaydi

Yangi qurilish va rekonstruktsya hisobidan ishga tushirilgan suv quvuri tarmoqlari	Aholining umumiy yashash sharoitlarini ifodalaydi
Aholi tomonidan o‘z hisobi va kreditlar yordamida yakka tartibda qurilib, ishga tushirilgan uy-joylar maydoni	Aholi umumiy daromadlari va yashash sharoitlari darajasini bilvosita ifodalaydi

Shu o‘rinda ta’kidlash mumkinki, keltirilgan ko‘rsatkichlar orasida aholining umumiy yashash sharoitlarini ifodalovchi, jumladan, uy-joy bilan ta’minlanganlik darajasiga oid bir qator qo‘shimcha ma’lumotlar tanlangan.

Buning asosiy sababi, muayyan hodisa yoki jarayonni baholashda ishtirok etuvchi ko‘rsatkichlar soni qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularning ayrimlarida uchrashimumkin bo‘lgan sub’ektiv omillarning ta’siri shunchalik kuchsiz bo‘ladi. Mamlakatimizda aholi farovonligi darajasidagi o‘zgarishlarni baholash maqsadida ularni namoyon etuvchi ko‘rsatkichlarning 2018-2023 yillardagi dinamikasi o‘rganib chiqildi (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekistonda aholi farovonligi darajasidagi o‘zgarishlarni namoyon etuvchi ko‘rsatkichlar dinamikasi [10]

Ko‘rsatkich	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi, ovqatlanish korxonalarini qo‘shgan holda (ChTA), mlrd. so‘m	71184,1	88071,6	105229,9	133195,2	166094,4	199518,8
Yangi qurilish va rekonstruktsiya hisobidan umumta’lim maktablarini ishga tushirish (UM), ming o‘quvchi o‘rni	57,9	88,9	94,5	80,4	114,1	119,3
Yangi qurilish va rekonstruktsiya hisobidan kasalxona muassasalarini ishga tushirish (KM), koykalar soni	10311	10081	4268	6123	7382	5668
Yangi qurilish va rekonstruktsiya hisobidan ishga tushirilgan suv quvuri tarmoqlari (SQT),kilometr	2644,0	2494,9	2471,4	3835,6	4879,2	5640,0
Yangi qurilish va rekonstruktsiya hisobidan ishga tushirilgan gaz tarmoqlari (GT), kilometr	356,0	312,4	305,2	174,4	180,3	190,7
Aholiga aloqa xizmati ko‘rsatishdan tushgan tushum (AX), amaldaginarxlarda, mlrd. so‘m	3421,9	4042,7	5104,7	5990,9	5070,1	6897,0
Uy-joy fondining taqsimlanishi (UJF), million kvadrat metr	477,1	490,8	507,5	521,2	536,8	549,0
Barcha manbalar hisobidan ishga tushirilgan uy-joylar (UJ), ming	12052,7	11280,0	11456,4	13398,6	15501,5	12867,9

kvadrat metr						
Aholi tomonidan o‘z hisobi va kreditlar yordamida yakka tartibda qurilib, ishga tushirilgan uy- joylar maydoni (YaTU), ming kvadrat metr	9709,4	9004,0	9028,2	10419,7	11768,2	11215,7
Qurilgan kvartiralar soni (K),ming	88,3	82,0	94,6	107,7	122,0	86,8
Bir kishi hisobida aholining uy-joy bilan o‘rtacha ta’minlangan- ligi (UJO’), kvadrat metr	15,2	15,4	15,7	15,8	16,0	16,0

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, tahlil davri (2018-2023 yillar)mobaynida faqat 3 ta, ya’ni chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi (ovqatlanish korxonalarini qo‘shgan holda), uy-joy fondining taqsimlanishi, bir kishi hisobida aholining uy-joy bilan o‘rtacha ta’minlanganligi ko‘rsatkichlari bo‘yicha oldingi yilga nisbatan izchil o‘sish kuzatilgan. Qolgan barcha ko‘rsatkichlarida ma’lum yillarda oldingi yilga nisbatan pasayish holatlari ro‘y bergan.

Shuningdek, 2023 yilda 2018 yilga nisbatan yuqori o‘sish sur’atlari chakana tovar aylanmasi umumiy hajmi (ovqatlanish korxonalarini qo‘shgan holda) (280,3%), ishga tushirilgan suv quvuri tarmoqlari (213,3%), aholiga aloqa xizmati ko‘rsatishdan tushgan tushum (201,6%), umumta’lim maktabla- rini ishga tushirish (206,0%) ko‘rsatkichlari bo‘yicha qayd etilgan. Aksincha, ishga tushirilgan gaz tarmoqlari (53,6%), kasalxona muassasalarini ishga tushirish (55%), qurilgan kvartiralar soni (98,3%) ko‘rsatkichlari bo‘yicha pasayish kuzatilgan.

3-jadval

O‘zbekiston hududlarining aholi farovonligidagi o‘zgarishlar darajasi bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlarini guruhlash[8]

Daraja guruhlari	Hududning reytingdagi o‘rni
Yuqori daraja (1-6)	Buxoro (4,8), Toshkent sh. (5,0), Toshkent (5,5), Namangan (5,6)
O’rta daraja (6,1-9,0)	Sirdaryo (6,4), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (7,0), Qashqadaryo (7,9), Navoiy (7,7), Andijon (8,1), Xorazm (8,1), Jizzax (8,8)
Past daraja (9,1-11)	Farg‘ona (9,5), Samarqand (9,6), Surxondaryo (11,0)

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, hududlarida aholi farovonligidagi o‘zgarishlar darajasi bo‘yicha reyting ko‘rsatkichlari jihatidan Buxoro viloyati (4,8), Toshkent shahri (5,0), Toshkent (5,5), Namangan (5,6) viloyatlari yuqori o‘rinni qayd etgan. Sirdaryo viloyati (6,4), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (7,0), Qashqadaryo (7,9), Navoiy (7,7), Andijon(8,1), Xorazm (8,1), Jizzax (8,8) viloyatlari o‘rta darajadagi guruhni namoyon etgan bo‘lsa, Farg‘ona (9,5), Samarqand (9,6), Surxondaryo (11,0) viloyatlari nisbatan past darajani namoyon etgan.

Xulosa. Fikrimizcha, O‘zbekistonda hududiy iqtisodiy tenglikni ta’minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Infratuzilmani rivojlantirish: Chekka hududlarda transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni oshirish.

Soliq va moliyaviy rag‘batlantirish: Chekka hududlarda joylashgan kichik biznes uchun imtiyozli soliq rejimlarini joriy qilish va davlat subsidiyalarini kengaytirish.

Ta’lim va malaka oshirish dasturlari: Qishloq joylarda aholini iqtisodiy faoliyatga jalb qilish uchun o‘quv kurslari tashkil qilish.

Maxsus hududiy rivojlanish dasturlari: Har bir hududning o‘ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda maxsus iqtisodiy dasturlar ishlab chiqish.

Kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish: Chekka hududlarda kichik biznes uchun past foizli kreditlar va grantlar joriy qilish.

Bu chora-tadbirlar hududiy iqtisodiy tenglikni ta’minlash orqali aholi daromadlarini oshirishga, iqtisodiy barqarorlikni kuchaytirishga va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, davlat tomonidan kichik biznesni hududiy qo‘llab-quvvatlash siyosati mamlakatning umumiy iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Latipov A. (2023): "O'zbekistonning kichik biznes subyektlarida xodimlar faoliyatini samarali tashkil etish va rivojlantirish" Manba: Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot Jurnali Havola](https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/download/645/640)
2. Yo‘ldasheva M. (2023): "Foydaning soliq obyekti sifatida shakllanish zaruriyati" Manba: Yashil Iqtisodiyot Taraqqiyot Jurnali [Havola](https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/download/383/373)
3. Sattorqulov O., Raimberdiyev S. Kichik biznes subyektlari faoliyatida tijorat banklarining investor sifatidagi roli //Вестник транспорта-Transport xabarnomasi. – 2024. – Т. 1. – №. 3. – С. 14-18.
4. Joseph Schumpeter (1942): "Capitalism, Socialism, and Democracy" Kitobda innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati tahlil qilingan. [Havola](https://www.amazon.com/Capitalism-Socialism-Democracy-Joseph-Schumpeter/dp/0061561614)
5. Paul Burns (2010): "Entrepreneurship and Small Business Development" Tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishga oid amaliy jihatlar yoritilgan. [Havola](https://www.palgrave.com/gp/book/9781137488976)
6. OECD (2022): "Small and Medium Enterprises: The Key to Economic Resilience" Manba: OECD hisobotlari [Havola](https://www.oecd.org/publications/small-and-medium-enterprises-the-key-to-economic-resilience-2022.htm)
7. I. Karimov (1993): "O‘zbekiston bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li" Kitob kichik biznesni iqtisodiy islohotlarning asosiy tarkibiy qismi sifatida yoritgan. [Havola](https://www.karimov.uz)
8. Burns P. (2020): "Entrepreneurship and Small Business Development" Tadbirkorlikni boshqarish va kichik biznesni rivojlantirish masalalari. [Havola](https://www.palgrave.com/gp/book/9781137488976)
9. Olimova M., Abdusattorova M. (2023): "Raqamli transformatsiya va uning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri" Manba: InLibrary O‘zbekiston [Havola](https://inlibrary.uz/index.php/socinov/article/view/42171)
10. www.Stat.uz – Statistika qo’mitasining rasmiy veb sayti.